

Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil yanvar- fevral oyida)

2019-yil yanvar-fevral oyida viloyatda 2,2 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1228 taga yoki 126,2 foizga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4057 ta (14,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 31,9 mingtani tashkil etgan.












Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4099	3472	143
 Sanoat	7241	6134	428
 Qurilish	2872	2388	208
 Savdo	8989	7374	965
 Tashish va saqlash	1286	1095	74
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2990	2379	186
 Axborot va aloqa	529	377	13
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	602	558	18
 Boshqa turlari	8949	8102	166




Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019-yilning 1 mart holatiga 37,6 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 23,9 % savdo, 19,3 % sanoat, 10,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 8,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,6 % qurilish, 3,4 % tashish va saqlash, 1,6 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,4 % axborot va aloqa hamda 23,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Zangiota (3862 ta), Qibray (3772 ta), Toshkent (2738 ta) tumanlari va Angren shahri (2544 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Ohangaron (864 ta), Oqqo'rg'on (932 ta), Piskent (969 ta) tumanlari hamda Ohangaron (903 ta) va Nurafshon (923 ta) shaharlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, mingda.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 31879 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4,1 mingta (14,6 %) ga oshgan.

01.03.2018 y.
27,8 ming


01.03.2019 y.
31,9 ming

O'tgan yilga nisbatan
4,1 mingtaga oshgan

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,1 % savdo, 19,2 % sanoat, 10,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,5 % qurilish, 7,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % axborot va aloqa hamda 25,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Zangiota (3357 ta), Qibray (3059 ta) va Toshkent (2263 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Ohangaron (762 ta), Oqqo'rg'on (798 ta), Chinoz (876 ta), Piskent (893 ta) tumanlari hamda Ohangaron (799 ta) va Nurafshon (812 ta) shaharlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni yillar kesimida, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

01.03.2017 y.

• 25,7 ming

01.03.2018 y.

• 27,8 ming

01.03.2019 y.

• 31,9 ming



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-fevral oyida 2201 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 126,2 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Zangiota tumani (290 ta), Qibray (190 ta), va Toshkent (187 ta) tumanlari hamda Angren (176 ta) shahar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Ohangaron (29 ta), Quyichirchiq (51 ta), Piskent (51 ta) tumanlari hamda Ohangaron (44 ta), Nurafshon (47 ta) shaharlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajaligi kuzatilmog'da.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (965 ta), sanoat (428 ta), qurilish (208 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (186 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (13 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (18 ta) hamda tashish va saqlash (74 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.03.2017y.		01.03.2018 y.		01.03.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	856	100	973	100	2201	100
Savdo	163	19,0	176	18,1	965	43,8
Sanoat	221	25,8	238	24,5	428	19,4
Qurilish	63	7,4	133	13,7	208	9,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	93	10,9	78	8,0	186	8,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	169	19,7	146	15,0	143	6,5
Tashish va saqlash	38	4,4	36	3,7	74	3,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	13	1,5	16	1,6	18	0,8
Axborot va aloqa	17	2,0	23	2,4	13	0,6
Boshqa turlari	79	9,2	127	13,1	166	7,5

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, mingta
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






TIJORAT KORXONALARI.

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1 mart holatiga 26,5 mingta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5,7 mingta, oilaviy korxonalar – 1,8 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 18,5 mingta va boshqalar 0,6 mingtani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yil 1 mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 864 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 246 taga yoki 39,8 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 485 tasi qo'shma korxonalar, 379 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Zangiota tumani (112 ta yoki jamidagi ulushi 13,0 %), Qibray tumani (87 ta yoki 10,1 %), Yuqorichirchiq tumani (69 ta yoki 8,0 %) va Chirchiq (65 ta yoki 7,5%), Angren shaharlari (63 ta yoki 7,3%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bekobod hamda Bo'ka (6 tadan yoki 0,7 %), Oqqo'rg'on (10 ta yoki 1,2 %), Piskent (12 ta yoki 1,4 %), Chinoz (13 ta yoki 1,5 %) tumanlari va Bekobod shahar (11 ta yoki 1,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 534 tani (61,8 %), savdoda 125 tani (14,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 76 tani (8,8 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 62 tani (7,2 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 1 tani (0,1 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 11 tani (1,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 15 tani (1,7 %), tashish va saqlashda 19 tani (2,2 %) va qurilishda 21 tani (2,4 %) tashkil

qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yil yanvar-fevral oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 43 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18 taga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 16 ta, Rossiya Federatsiyasi - 7 ta, Turkiya Respublikasi - 5 ta, Afg'oniston va Qozog'iston Respublikalari - 3 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019 yilda Ozarbayjon, Hindiston, Janubiy Koreya, Germaniya Federativ Respublikasi, Ruminiya va Turkmaniston Respublika rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (25 ta), savdo (8 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (3 ta), qurilish, yashash va ovqatlanish, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohalarida, (1 tadan) hamda boshqa faoliyat turlari (4 ta) hissasiga to'g'ri keladi.



**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**


	2018-yil yanvar-fevral oyi		2019-yil yanvar-fevral oyi	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Jami	25	100	43	100
Sanoat	17	68,0	25	58,1
Savdo	3	12,0	8	18,6
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	3	12,0	3	7,0
Qurilish	1	4,0	1	2,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	x	x	1	2,3
Tashish va saqlash	x	x	x	x
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	4,0	1	2,3
Boshqa turlari	x	x	4	9,3



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1 mart holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 26,2 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1 mart holatiga qaraganda 16,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 2,9 mingtasi (11,1 %) Zangiota, 2,6 mingtasi (9,8 %) Qibray hamda 2,0 mingtasi (7,6 %) Toshkent tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 26,2 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 7,3 mingtasi (27,9 %) – savdo, 6,0 mingtasi (23,0%) – sanoat, 3,4 mingtasi (13,0 %) – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,4 mingtasi (9,1 %) – qurilish, 2,4 mingtasi (9,0 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1,1 mingtasi (4,1 %) – tashish va saqlash, 0,4 mingtasi (1,7 %) – sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,4 mingtasi (1,4 %) – axborot va aloqa sohasi, shuningdek 2,8 mingtasi (10,9 %) – boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019-yil yanvar-fevral oylarida 2,2 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1253 taga yoki 139,4 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota (285 ta), Qibray (188 ta), Toshkent (186 ta) tumanlari va Angren (174 ta) shahar hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Ohangaron (29 ta), Piskent (48 ta), Quyichirchiq (49 ta) tumanlari va Ohangaron (40 ta), Nurafshon (46 ta) shahrida tashkil etilgan.



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (965 ta), sanoatda (428 ta), qurilishda (208 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (185 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (13 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (18 ta) hamda tashish va saqlashda (74 ta) tashkil etilgan.



Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1 mart holatiga 2045 tani tashkil etib, ulardan 1767 tasi yoki 86,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 15,6 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 39,0 % yoki 690 tasi sanoat, 20,1 % yoki 355 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,6 % yoki 346 tasi savdo, 12,7 % yoki 225 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 20 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 15 tasi qurilish, 0,7 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,2 % yoki 3 tasi axborot va aloqa hamda 5,7 % yoki 101 tasi boshqaf aoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.:71-230-86-83 (84)